



COMMUNICATIVE POLICY OF THE PERSONALITY OF THE SULTAN OF OMAN IN THE CONTEXT OF THE GULF COUNTRIES

Nilufar Yuldashevna Nasirova

Head of the Personnel Department

Tashkent State University of Oriental Studies

nilufarnasirova2017@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: political communication; legitimacy; Sultan of Oman; Gulf states; digital communication; stability.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article examines the Sultan of Oman's personal political communication strategy in the context of Gulf Cooperation Council (GCC) states. It analyzes the Sultan's style of engaging with the public, his use of mass media and digital platforms, and the role of these communicative strategies in fostering political stability and legitimacy.

ARAB KO'RFUZ DAVLATLARI KONTEKSTIDA O'MON SULTONI SHAXSIYATINING KOMMUNIKATIV SIYOSATI

Nilufar Yuldashevna Nasirova

Xodimlar bo'limi boshlig'i

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

nilufarnasirova2017@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: siyosiy kommunikatsiya; legitimlik; O'mon sultoni; Ko'rfuz davlatlari; raqamli kommunikatsiya; barqarorlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ko'rfuz mamlakatlari kontekstida O'mon sultoni shaxsiyatining siyosiy kommunikatsiya uslubi tahlil qilinadi. Sultonning xalq bilan muloqot qilish usullari, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalardan foydalanish yo'llari hamda bu kommunikatsion strategiyalarning mamlakatda siyosiy barqarorlik va legitimlikni ta'minlashdagi o'rni o'rganilgan.

КОММУНИКАТИВНАЯ ПОЛИТИКА ЛИЧНОСТИ СУЛТАНА ОМАНА В КОНТЕКСТЕ СТРАН АРАБСКОГО ЗАЛИВА

Нилуфар Юлдашевна Насирова

Начальника отдела Кадров

Ташкентского государственного университета востоковедения

nilufarnasirova2017@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: политическая коммуникация; легитимность; султан Омана; государства Залива; цифровая коммуникация; стабильность.	Аннотация: В данной статье анализируется политическая коммуникационная политика личности султана Омана в контексте стран Залива. Исследование посвящено стилю личной политической коммуникации султана, средствам его общения с народом, использованию средств массовой информации и цифровых платформ, а также роли этих коммуникационных стратегий в обеспечении политической стабильности и легитимности.
--	---

Kirish. Mamlakat rahbarining xalq bilan kommunikatsiyasi va o'zini omma oldida qanday namoyon etishi siyosiy barqarorlik hamda hokimiyatning legitimligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, mutlaq monarxiya hukm suradigan Ko'rfaz davlatlarida yetakchining shaxsiy obro'-e'tibori va kommunikativ siyosati orqali jamiyatda ishonch muhitini shakllantirish kuzatiladi. O'mon Sultonligi bunga yorqin misollardan bo'lib, yarim asrdan ziyod davr mobaynida (1970–2020 yillarda hukmronlik qilgan sulton Qobus bin Said davrida) mamlakatda nisbatan barqaror va birlikka asoslangan jamiyat shakllandi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, Sultan Qobus o'z hukmron rejimining legitimligini milliy birligini ta'minlash, neft-renta davlatidan kelgan daromadlarni butun mamlakat bo'ylab teng taqsimlash va davlatni "Renessans" davrining ramzi sifatida o'z shaxsiyati bilan bog'lash siyosati orqali qurdi. Darhaqiqat, Sultan Qobus boshqaruvinining ilk yillaridanoq ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga katta e'tibor qaratib, fuqarolar farovonligini oshirish orqali yangi rejimga nisbatan ishonch hosil qilgan edi. Natijada, hozirgi kunda ham O'mon jamiyati ichida sulton hokimiyatini haqiqiy deb bilish, uni qo'llab-quvvatlash darajasi yuqori bo'lib kelmoqda.

Asosiy qism. O'mon sultonining xalq bilan bevosita muloqot uslublari mintaqadagi boshqa davlatlar orasida o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Sulton Qobus boshqaruvi davrida joriy etilgan "Qirollik sayohatlari" mamlakat bo'ylab xalq bilan yuzma-yuz muloqot qilishning noyob usuli bo'ldi. Har yili sulton turli viloyatlarga safar qilib, oddiy fuqarolar va mahalliy yetakchilar bilan uchrashar, ularning ehtiyoj va muammolarini tinglardi. Bunday uchrashuvlar davomida

fuqarolar sultonga o'z taklif va shikoyatlarini ochiq tarzda bildirish imkoniga ega bo'lgan. Sultan Qobusning "xalq orasiga kirib borish" amaliyoti lider va fuqaro o'rtasidagi ishonch rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilgan va qarorlar qabul qilishda aholi ishtirokini ta'minlagan. Aynan shunday bevosita muloqot vositalari tufayli sulton o'zini xalq dardini eshitadigan, g'amxo'r ota sifatida namoyon eta oldi.

Sulton Xaysam bin Toriq ham ushbu an'anani davom ettirmoqda. U taxtga chiqqan dastlabki yillarda viloyatlar oqsoqollari va mahalliy rahbarlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, mintaqaviy muammolarni muhokama qildi. Masalan, 2022 yil yanvarida Sultan Xaysam Dahiliya, Vusta va Janubiy Sharqiya viloyatlari oqsoqollari bilan uchrashib, hududlarning rivojlanish loyihalari va ijtimoiy masalalar yuzasidan suhbatlashdi. Bu uchrashuvlar davomida sulton viloyatlarni rivojlantirish uchun maxsus mablag'lar ajratilishini e'lon qildi, xotin-qizlar jamiyatlari va nogironlar markazlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rsatmalar berdi. Ko'rinib turibdiki, yangi sulton ham xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilib, oldingi sulton asos solgan an'anani davom ettirishga intilmoqda. Bu esa hokimiyat almashinuvi jarayonida legitimlikni saqlash va jamiyatni birlashtirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'mon saltanatida "ochiq eshik" siyosati ko'rinishlari ham kuzatiladi. Masalan, sulton saroyiga murojaat qilish, muammolarni bevosita bildirish uchun fuqarolar va arboblarning uchun maxsus qabullar tashkil etilishi haqida manbalar zikr etadi. Sharq mamlakatlarida odat tusiga kirgan majlis (hukmdor qabul marosimlari) O'mon kontekstida ham mavjud bo'lib, sulton yoki uning vakillari huzurida fuqarolar murojaatlarini tinglash amaliyoti mavjud. Bu kabi an'anaviy muloqot kanallari aholining dardini yuqori hokimiyatgacha yetkazish va shu orqali boshqaruvning jamoatchilik ko'z o'ngida legitimligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'mon sultonining kommunikativ siyosatini tushunishda uning ommaviy axborot vositalari va siyosiy obrazni shakllantirish usullaridan foydalanishi muhim o'rin tutadi. Sulton Qobus o'z hukmronligi davomida o'zini zamonaviy davlat asoschisi, dono va adolatli podshoh qiyofasida namoyon eta oldi. Bu obraz jamiyat ongi va mentalitetiga singdirilishi uchun turli kommunikatsion vositalar ishlatilgan.

Avvalo, rasmiy matbuot va davlat televideniyesi sulton faoliyatini yoritishda asosiy platforma bo'lib xizmat qildi. O'mon davlat OAVsi sulton ishtirokidagi tadbirlar, farmonlar va nutqlarni muntazam yoritib bordi.

Sulton Qobusning rasmiy nutqlari va diskursi yillar davomida mamlakat ichki va tashqi siyosatidagi ustuvor vazifalarga muvofiq ravishda o'zgarib borgan, lekin doimo uning legitimlik da'vosini va "bag'rikeng, tinchliksevar milliy identitet"ni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Portretlar va siyosiy ramzlar O‘mon sultoni kommunikatsiyasining ajralmas qismidir. Yarim asr davomida Sulton Qobusning portretlari O‘monning deyarli barcha jamoat joylari va muassasalarida namoyish qilinib keldi. Maxsus tadqiqotlar xulosasiga ko‘ra, rasmiy portretlar omma ongida sultonning ko‘pqirrali qiyofasini – zamonaviylashtiruvchi, karizmatik, diplomat va shu bilan birga qat’iy hokim sifatidagi obrazini shakllantirishga xizmat qilgan. Siyosiy sotsiolog Muborak Al-Hamdani ta’kidlashicha, “portret – bu siyosiy kommunikatsiyaning eng muhim vositalaridan biri bo‘lib, fuqarolarning ongida sulton haqidagi intellektual merosni yaratadi.” Darhaqiqat, O‘mon fuqarolari orasida Sultan Qobus “millat otasi” deb e’zozlanib, uning surati va xotirasi “qalblar va onglarda” mangu yashashi kerakligi haqida qarashlar shakllangan.

Portretlar va boshqa siyosiy timsollar orqali kommunikatsiya nafaqat sultonning karizmasini oshirish, balki fuqarolarda “rahbar hamisha ular bilan birga” degan tuyg‘uni paydo qilishga qaratilgandir. Masalan, rasmiy idoralarda doimiy ilingan portretlar va shahar ko‘chalaridagi katta tasvirlar ramziy ma’noda “hokim har doim xonada nazoratchi sifatida bor” degan kayfiyatni uyg‘otadi. Bu esa fuqarolarda o‘z-o‘zini senzura qilish va hukumatga xayrixoh bo‘lish hissini shakllantirishi mumkin. Shu bilan birga, bunday personalistik siyosiy kommunikatsiya uslubi Ko‘rfaz mintaqasidagi boshqa davlatlarda ham keng tarqalgan. Xususan, Saudiya Arabistoni, BAA, Qatar kabi mamlakatlarda ham hukmdorlarning portretlarini jamoat joylarida namoyish etish orqali ularning hokimiyatini jamiyat ongiga singdirish – legitimlikni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llanadi. Tahlilchi Ryan Bohlning qayd etishicha, “G‘arbiy Osiyo jamiyatlarida qabila an‘analari kuchli bo‘lib, shaxsiy sadoqat va aloqalar yuqori qadrlanadi. Shu boisdan liderning surati orqali uni xalq bilan bog‘lab qo‘yish hokim-va-fuquro o‘rtasida yaqinlik hissini yaratadi”

O‘monning siyosiy kommunikatsiyasida matbuot erkinligi darajasi cheklangani ham e’tiborga molikdir. Matbuot erkinligi xalqaro reytinglarida Ko‘rfaz mamlakatlari odatda quyi o‘rinlarda turadi va O‘mon ham bundan mustasno emas. Bu holat davlat rahbari va hukumatga tanqidiy munosabatdagi kontentning jamoatchilikka yetib borishini cheklaydi. Natijada, rasmiy OAV bir yoqlama ravishda hukmron tuzum ideallarini targ‘ib qiladi, oppozitsion yoki tanqidiy fikrlar esa ko‘rinmaydi. Albatta, bunday vaziyatda sultonning ijobiy imiji hech qanday rasmiy muqobil diskurs bilan so‘roq ostiga olinmasdan, jamiyatda bir ovozdan qo‘llab-quvvatlanadigan yagona narrativ sifatida qaror topadi. “The Economist” jurnali 2012 yilda O‘monni “dunyodagi eng maftunkor politsiya davlati” deb atagan edi – bu ta’rif erkin matbuot va siyosiy pluralizm cheklangan bo‘lsa-da, hukumat o‘z fuqarolariga nisbatan nisbatan yumshoq, paternalistik uslubda boshqarayotganini anglatadi. Mazkur modelda sulton jamiyatga farovonlik, tinchlik va barqarorlik beruvchi homiy sifatida ko‘rsatiladi, almashuviga esa katta ehtiyoj sezilmaydi.

XXI asrga kelib, raqamli kommunikatsiya vositalarining kengayishi natijasida O‘mon sultonining kommunikativ siyosatida yangi o‘lcham paydo bo‘ldi. An‘anaviy jihatdan, O‘mon hukmdori bevosita ijtimoiy tarmoqlar orqali ommaga murojaat qiladigan yetakchilardan emas. Masalan, qo‘shni Birlashgan Arab Amirliklari va Qatar rahbarlari Twitter kabi platformalarda rasmiy akkauntlari orqali millionlab obunachilarga ega bo‘lib, faol xabarlar tarqatishsa O‘mon sultoni bunday yo‘l tutmaydi – u asosan rasmiy davlat OAVlari va an‘anaviy kanallar orqali gapiradi.

Shunga qaramay, O‘mon davlat idoralari va ommaviy axborot vositalari raqamli maydonda muayyan faollikka ega. Oman News Agency (ONA) kabi rasmiy axborot agentliklarining Twitter va Instagramda sahifalari mavjud bo‘lib, sultonning farmonlari, uchrashuvlari va tabriklarini tezkor tarzda ommaga yetkazadi.

O‘mon hukumati raqamli platformalardan faqat axborot tarqatish uchun emas, balki jamoatchilik kayfiyatini o‘rganish va boshqarish uchun ham foydalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar monitoringi orqali davlat organlari fuqarolar fikrini kuzatib, muammoli masalalarni aniqlashga urinadi.

2025 yil fevral oyida O‘mon Axborot vazirligi “Ijtimoiy media bilan muomala bo‘yicha milliy platforma sari” nomli dastlabki forumni o‘tkazdi. Bu tashabbus Sultan Xaysamning raqamli zamonda yoshlar tarbiyasi va milliy qadriyatlarni asrash borasidagi ko‘rsatmalari asosida amalga oshirilganini rasmiylar ta’kidlashdi. Ma’lum bo‘lishicha, sultonning maxsus farmoyishlari bilan tashkil etilgan ushbu dastur internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan. Unga ko‘ra, bir tomondan, aholining raqamli savodxonligini oshirish, yoshlar va oilalarda internetdan to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish, yolg‘on axborot va kiber tahdidlarga qarshi kurashish rejalashtirilgan. Ikkinchi tomondan esa, davlat organlari va xususan hukumatning ijtimoiy tarmoqlardagi ishtirokini tartibga solish orqali, OAVda davlat imijini mustahkamlovchi, jamiyatga foydali kontent ulushini oshirish mo‘ljallanmoqda. Bu kabi harakatlar, aslida, raqamli kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalanish orqali siyosiy legitimlikni mustahkamlash strategiyasining bir qismi sifatida ko‘riladi. Ya’ni, sultonning tashabbuslari bilan internetda axborot xavfsizligi va ijtimoiy birdamlikni qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, shu orqali davlat va jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy shartnomani raqamli sohada ham mustahkamlashga intilish kuzatilmoqda.

O‘mon sultoni shaxsan ijtimoiy tarmoqlarda faol bo‘lmasa-da, muayyan vaziyatlarda u televideniye va internet orqali xalqiga murojaat yo‘llagan. Masalan, 2020 yilda taxtga o‘tirgach, Sultan Xaysam butun mamlakatga ilk murojaatini televideniye orqali yo‘llab, Sultan Qobusning merosini davom ettirishga va’da bergan edi. 2021 yil may oyida mamlakatda yoshlarsiz

ishizlikka doir norozilik namoyishlari avj olgan paytda, sulton tezkor tarzda Vazirlar Mahkamasi yig'ilishini chaqirib, bu masalaga yechim muhokama qildi – bu yig'ilish davlat telekanali orqali yoritildi. Sulton Xaysam mazkur muloqotda “Yoshlar – millatning boyligidir, biz ularning ehtiyoj va intilishlarini diqqat bilan tinglaymiz” deya ta'kidlab, 32 mingta yangi ish o'rni yaratish bo'yicha farmoyishlar berdi. Bu chaqiriq va yechimlarning tezkor ommaga yetkazilgani, shuningdek, namoyishchilar oldiga chiqqan rasmiylarning suv tarqatib, tinch muloqotga o'tishga uringani kabi holatlar hukumatning kommunikativ yondashuvi qanchalik ahamiyatli ekanini ko'rsatadi. Raqamli davrda hatto ommaviy noroziliklar ham ijtimoiy tarmoqlar orqali uyushtirilishi mumkin – O'mon misolida namoyishchilarning videolari Twitter va YouTube'da tarqaldi. Hukumat esa bunga javoban bir vaqtning o'zida kuch va murosani uyg'unlashtirgan holda, media orqali xalqni tinchlantirishga xizmat qiluvchi kommunikatsiya qilmoqda: sulton tezkor bayonotlar bilan muammo hal etilishini va'da qiladi, rasmiy OAV esa bu xabarni butun mamlakatga yoyadi.

O'mon sultonining yuqorida keltirilgan kommunikativ uslublari jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlash va hokimiyat legitimligini mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shib kelgan. Legitimlik – hukmron tuzumning axloqiy huquqliligi va xalq tomonidan tan olinishi – avtoritar tizimlarda ko'pincha shaxsiy liderlik karizmati va ko'rsatilayotgan natijalar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Sultan Qobus o'z hokimiyatini qonuniy deb e'tirof ettirish uchun iqtisodiy taraqqiyot va milliy birlikni asosiy vosita sifatida qo'lladi. Uning 1970-yillarda boshlab yuborgan modernizatsiya siyosati oddiy fuqarolar hayotini sezilarli yaxshilagan bo'lib, bu yangi rejimga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirdi. O'z navbatida, bu islohotlar kommunikatsion jihatdan ham yetkazildi: davlat targ'ibot apparati orqali har bir qurilgan obyekt yoki amalga oshirilgan ijtimoiy loyiha sulton rahnamoligi va g'amxo'rligining mevasi sifatida taqdim etildi. Shu yo'sinda, “sulton – taraqqiyot kafolati” degan g'oya jamiyatda qaror topdi.

Shuningdek, Sultan Qobus ijtimoiy ko'pchilikni siyosiy jarayonlarga ramziy hamroh etish orqaligina emas, balki hukumat tuzilmasida hududiy va qabila vakolatlarini muvozanatlashtirish orqali ham legitimlik poydevorini mustahkamladi. J.E. Peterson qayd etadiki, yangi hukumat shakllantirilganda vazirlik va yuqori lavozimlar turli mintaqalar va yirik qabila vakillariga taqsimlanishi bilan odamlar davlatni “o'zlariniki” deb his qila boshladilar. Boshqacha aytganda, sulton barcha qabilalar va viloyatlar manfaatini ko'zlagan holda ish tutayotgani haqidagi ishonch paydo bo'ldi. Shu bilan birga, an'anaviy vasila (vasta) instituti – ya'ni muammoli masalalarda quyi bo'g'inlarni chetlab o'tib, bevosita yuqori mulozimlar va sulton yaqinlariga murojaat qilish amaliyoti – davom etgani ham kuzatiladi. Bu holat zamonaviy byurokratiya tamoyillariga zid tuyulsa-da, aslida fuqarolar uchun o'ziga “tanish” bo'lgan, shaxsiy aloqalar orqali masalasini hal

qilish imkonini qoldirgan. Natijada, fuqarolarning muayyan qismi muammolarini hal etishda ham sulton hokimiyatiga tayanar, unga norozilik bildirish o'rniga, uning mulozimlaridan yordam so'rashga odatlangan. Bu ham kommunikatsiyaning noformal bir ko'rinishi bo'lib, odamlarni tuzum bilan konfliktga kirishmasdan, aksincha, unga moyillik bildirishga undaydi.

O'mon sultoni kommunikatsion strategiyasining yana bir muhim jihati – xavfsizlik va barqarorlikni kommunikatsiya qilish sanaladi. Ko'rfaz mintaqasida bir qator qo'shni davlatlar ichki beqarorlik va ijtimoiy nizolar bilan yuzlashgan bir paytda, O'mon nisbatan osoyishta edi. Bu farqni izohlashda ko'p olimlar O'monning o'ziga xos diniy bag'rikengligi va milliy muvozanatli siyosatini tilga olishadi. Darhaqiqat, aholining asosiy qismi mansub bo'lgan ibodiylik (Ibodi mazhabi) murosali ruh bilan tanilgan, shia va sunniylar o'rtasida ziddiyat yo'q. Sulton Qobus ushbu boylikdan kommunikativ maqsadlarda unumli foydalangan: u O'monni “tolerant islom va tinchlik yo'lini tanlagan mamlakat” deb dunyoga namoyish qildi. Bu imij xalqaro maydonda O'monning o'ziga yarasha obro'sini oshirdi, ichkarida esa fuqarolarda o'z yurtiga nisbatan g'urur hissini paydo qildi. Oqibatda, hatto hukumat siyosatiga tanqidiy qaraydigan ba'zi o'manliklar ham sultonni hurmat qilishda davom etganliklari qayd etiladi – chunki u mintaqadagi eng uzoq yillar hukmronlik qilgan, ammo baribir xalq orasida eng legitim qabul qilingan liderlardan biri edi.

Legitimlikni mustahkamlashda kommunikatsiya strategiyasining muvaffaqiyati 2011 yilgi “arab bahori” voqealari davrida va undan keyingi davrda sinovdan o'tdi. 2011 yilda O'monning bir qancha shaharlarida ishsizlik va korrupsiyaga qarshi norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. O'sha vaqtda Sulton Qobus inqirozni bartaraf etish maqsadida tezkor choralar ko'rdi: hukumat tarkibida o'zgarishlar qildi, ba'zi vazirlarni iste'foga chiqardi, yoshlar bandligini oshirish uchun minglab yangi ish o'rinlari yaratishga va'da berdi va talabalarga stipendiyalar miqdorini oshirdi. Bu choralar, albatta, siyosiy qarorlar bo'lsa-da, ularning ommaga kommunikatsiyasi ham ustalik bilan olib borildi. Davlat televideniyesi orqali sultonning farmonlari elon qilindi, rasmiy matbuotda uning “xalq dardi eshitilgani va hal etilayotgani” haqida ijobiy yoritildi. Natijada, namoyishlar nisbatan tez tinchidi, norozilik bildirgan fuqarolarning bir qismi hukumat va'dalarini qoniqarli deb topib uy-uyiga tarqaldi. Bu voqea shuni ko'rsatadiki, krizis davrida to'g'ri tanlangan kommunikatsiya ohangi va vaqtinga muvofiq berilgan xabarlar (masalan, “xalq men uchun bebaho, ularning talablarini tinglayman” degan mazmundagi sulton murojaati) beqarorlikni jilovlash va hukumatni qaytadan legitimlashtirishga ko'maklashadi.

O'mon sultoni siyosiy kommunikatsiyasining asosiy yutug'i – fuqarolar qalbida hokimiyatga nisbatan sadoqat hissini uyg'otish va saqlab turishdir. Bevosita muloqot (sayohatlar, uchrashuvlar) orqali sulton “xalqning bir qismi” sifatida ko'rinadi, ommaviy axborot vositalari

va ramzlar orqali esa u “millat ramzi va himoyachisi” sifatida ulug‘lanadi. Raqamli davrda ham u o‘z strategiyasini to‘g‘ri moslashtirib, internet maydonida ham davlat siyosatini tushuntirish va himoya qilishga e‘tibor bermoqda. Shu tariqa, kommunikatsiya siyosati O‘monda siyosiy barqarorlikni asrash va fuqarolar konsolidatsiyasiga xizmat qilayotgan muhim omillardan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘mon sultonining kommunikativ siyosatini Ko‘rfaz hamkorlik kengashi (GCC) doirasidagi boshqa davlatlar liderlarining muloqot uslublari bilan solishtirish, mintaqaviy o‘ziga xoslik va farqlarni yoritishga imkon beradi. Ko‘rfaz monarxiyalarining barchasida hokimiyat shaxsiga (qirol, amir yoki sulton) kuchli e‘tibor qaratiladi va shaxs kultiga moyillik kuzatiladi. Biroq har bir davlatning tarixiy, madaniy sharoitlari va lider shaxsiyati sababli kommunikatsiya uslublari sezilarli farqlar mavjud.

O‘mon rahbarining kommunikatsiya uslubi nisbatan tinch, kamtarona va xalqchil tarzda namoyon bo‘ladi. U o‘zini hech qachon “jasoratli orator” sifatida ko‘rsatmagan bo‘lsa-da, mamlakat ichida har bir ahamiyatli o‘zgarish yoki siyosatni boshlashdan oldin xalqiga murojaat yo‘llab, ularni ishonitirishga intilgan. O‘mon sultonlari portretlar va milliy ramzlar orqali o‘zlarini ota-rahbar sifatida taqdim etib, jamiyatda chuqur hurmat qozongan. Raqamli kommunikatsiya borasida O‘mon ehtiyotkorlik bilan qadam tashlab, sulton shaxsan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmaydi, uning o‘rniga rasmiy axborot kanallari orqali xabarlar tarqatiladi. Bu jihat O‘monni, masalan, BAAdan farqlaydi. BAA rahbariyati, ayniqsa Dubay amiri Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum va Abu Dabi valiahdi (hozirgi prezidenti) Shayx Muhammad bin Zoid, juda faol media va PR siyosati olib boradi. Ular o‘z davlatlarini modernizatsiya va innovatsiyalar markazi sifatida targ‘ib qilishda xalqaro va mahalliy kommunikatsiya vositalarini keng qo‘llaydilar. Shayx Muhammad bin Roshid mintaqada eng mashhur ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilaridan biri bo‘lib, 10 milliondan ortiq Twitter obunachisiga ega va muntazam ravishda o‘z sahifalarida davlat yutuqlari, rejalar, motivatsion fikrlar bilan o‘rtoqlashadi. BAA yetakchilari tez-tez matbuot anjumanlari, global forumlarda nutqlar bilan chiqish qilib, o‘z imijini jahon miqyosida targ‘ib etadilar. Shuningdek, ular xalq bilan bevosita muloqot qilishning zamonaviy shakllarini joriy etgan: masalan, onlayn platformalar orqali fuqarolar takliflarini qabul qilish yoki “ochiq majlis”larda ishtirok etish. BAA rahbarlari kommunikatsiyasida islohotchilik va kelajak haqidagi vizyon asosiy mavzu bo‘lib, xalq hamda jahon hamjamiyatiga “bizning lider zamonaviy, innovatsion fikrlaydigan boshliq” degan xabar uzatiladi. Bu borada ular O‘mon sultonidan tubdan farq qiladi, chunki O‘mon sultoni konservativroq, kamtar uslubni afzal ko‘radi.

Saudiya rasmiy davlat kommunikatsiyasi uzoq yillar davomida juda ehtiyotkor va an'anaviy bo'lib kelgan. Qirol oilasi (Saudiylar sulolasi) o'z hokimiyatini asosan diniy legitimlik va qabila sulolaviy merosga tayangan holda o'rnatgan. Shu sababli, saudiyalik qirollar omma oldida kamdan-kam hollarda notiq sifatida namoyon bo'lib, odatda rasmiy bayonotlar, qirollik farmonlari va diniy asosdagi nutqlar bilan cheklanishgan. Xalq bilan muloqot ko'proq an'anaviy majlislarda – masalan, qirol huzurida shahzodalar va fuqarolarni qabullarda ko'rinish bergan. Biroq so'nggi yillarda, ayniqsa valiahd shahzoda Muhammad bin Salmon siyosiy maydonga chiqishi bilan, Saudiya kommunikatsiya strategiyasida jiddiy o'zgarishlar sezildi. Muhammad bin Salmon xalqaro matbuotga intervyular berib, Saudiya Arabistonining Vision 2030 dasturini global auditoriyaga targ'ib qildi, mahalliy yoshlar bilan uchrashuvlarda ishtirok etib, o'zini islohotchi sifatida ko'rsatishga harakat qildi. U Twitter kabi platformalarda shaxsiy emas, lekin davlat rasmiy akkauntlari orqali va turli PR tadbirlar orqali yosh avlod bilan aloqada bo'lishga intilmoqda. Shunday bo'lsa-da, Qirol Salmon va umuman qirollik kommunikatsiyasi haligacha an'anaviy ohang – diniy va milliy hamjihatlik mavzulariga urg'u berish bilan, hamda qat'iy nazorat ostidagi OAV orqali amalga oshiriladi. Saudiya va O'monni qiyoslaganda, Saudiya rahbariyati ko'proq diniy-legitim kommunikatsiyaga tayansa, O'mon sultoni milliy birlik va tarixiy merosga tayanganini ko'rish mumkin.

Quvayt amiri kommunikatsiyasini boshqa Ko'rfaz davlatlaridan alohida tilga olish kerak, chunki Quvayt mintaqada nisbatan erkin matbuoti va faol parlamenti bilan ajralib turadi. Quvayt Amirlarining shaxsiy kommunikatsiyasidan ko'ra, mamlakatda parlament muhokamalari va matbuotda ochiq tanqid-munozaralar ko'proq e'tiborni tortadi. Quvayt amiri odatda davlat ahamiyatiga molik nutqlarni amalga oshiradi, ammo kundalik siyosiy muloqotda ko'proq bosh vazir va boshqa rasmiylar ishtirok etadi. Shunga qaramay, Quvayt amirining portretlari va ramziy ishtiroki saqlanib qolgan – masalan, rasmiy ofislar va ko'chalarda uning surati mavjud. Quvayt jamiyati ko'proq siyosiy faollikka ega bo'lgani uchun, amir legitimligini asosan konstitutsiyaviy tartiblar va parlament orqali ta'minlashga harakat qiladi. Bu esa uning kommunikatsiya ohangiga ham ta'sir qiladi – u o'zini ko'pincha “boshqaruv konstitutsiya va qonunlarga tayangan holda amalga oshmoqda, men esa uning kafolatchisiman” degan mazmunda ko'rsatadi. O'mon sultoni esa bunday konstitutsiyaviy cheklavlarga ega emas edi. Shu sababli, O'mon sultoni kommunikatsiyasida paternalizm kuchliroq bo'lsa, Quvayt amirida institutsional kommunikatsiya elementi ko'proqdir.

Bahrayn qirolli Hamad bin Iso Ol Xalifa kommunikativ siyosati bir qadar murakkab, chunki mamlakat ichida 2011 yilda ro'y bergan sektararo keskinlik va norozilik harakatlari uning legitimligiga soya solgan edi. Shundan so'ng, Bahrayn rahbariyati qattiq xavfsizlik choralari

bilan birga kuchli propaganda kampaniyasini olib bordi. Qirol Hamad o'zini Bahraynda sunniylar va shialar o'rtasida totuvlik tarafdori sifatida ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa-da, amalda muxolifatni keskin tazyiq ostiga oldi. Uning kommunikatsion xabarlarida "biz beqarorlikka yo'l qo'ymaymiz, farovonlik uchun birlashaylik" kabi chaqiriqlar yangragan. Davlat OAVsi Qirol va valiahd shahzoda Salmonga sadoqatli va maqtovchan materiallar bilan to'lib toshgan, ijtimoiy tarmoqlarda esa hukumat tarafdorlari PR faoliyatini olib boradi. Bunda Ba'zi paytlarda troll akkauntlar va targ'ibot vositalari ham ishga solingan. Bahrayn rahbariyati uchun kommunikatsiyada asosiy vazifa – xalqaro hamjamiyat ko'z o'ngida o'z imijini saqlash, ichki auditoriya uchun esa qat'iy nazorat orqali sukunatni ta'minlash bo'ldi. Bu jihatdan Bahrayn qirolining kommunikatsion uslubi O'mon sultoninikidan keskin farq qiladi: O'mon sultoni jamiyatda real konsensusga erishishga harakat qilgan bo'lsa, Bahrayn qirolligi ko'proq kuch va qo'rqitish vositasiga tayanishga majbur bo'ldi, kommunikatsiya esa fasad vazifasini o'tagan.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar O'mon sultoni shaxsiyatining kommunikativ siyosati mamlakat siyosiy barqarorligi va hukmronlik legitimligini ta'minlashda qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. O'mon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, avtoritar boshqaruv sharoitida ham puxta o'ylangan, xalq bilan aloqa o'rnatishga qaratilgan kommunikatsiya strategiyasi orqali jamiyatda hokimiyatga nisbatan ishonch va sadoqatni shakllantirish mumkin. Xususan, Sultan Qobus bin Said o'z hukmronligi davomida bevosita muloqot, ramziy kommunikatsiya hamda ommaviy axborot vositalarini nazoratli ravishda safarbar etish orqali o'zini "millat otasi" sifatida xalq ongiga muhrladi. Bu esa unga mintaqadagi boshqa ko'plab hukmdorlarga nisbatan yuksak legitimlik baxsh etdi – hatto tanqidchilar ham uning xizmatlarini tan oldilar.

Ko'rfaz mamlakatlari kontekstida olib borilgan solishtirma tahlil esa, O'mon sultonining kommunikativ uslubi nisbatan "yumshoq kuch" va xalqchil yondashuvi bilan ajralib turishini ko'rsatdi. Agar BAA kabi davlatlarda liderlar o'zlarini global sahnada innovatsion boshchi sifatida ko'rsatishga intilishsa, Saudiya va Quvayt kabi mamlakatlarda kommunikatsiya ko'proq diniy-an'anaviy va institutsional yo'nalishda rivojlangan. Shunga qaramay, barcha holatlarda kommunikatsiya siyosatining markazida rahbar shaxsini ideallashtirish va uning hokimiyatini oqlash yotadi. Demak, siyosiy kommunikatsiya – bu mintaqa monarxiyalarining "yashirin quroli" bo'lib, u orqali ular fuqarolar roziligini qozonadi yoki hech bo'lmasa norozilikni susaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Saadi, Nasser bin Saif. O'mondagi olimlar va hokimiyat: 1749–1913. – Doha: Arab tadqiqot va siyosiy tadqiqotlar markazi, 2022.

2. Al Shuaili, M. A. Sulton Qobusning Fors ko'rfazidagi birinchi urush (1980–1988) bo'yicha pozitsiyasi. // Arab va Fors ko'rfazi tadqiqotlari jurnali, Taylor & Francis Group, 2024.
3. Al-Alamayn. O'mon tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va yo'nalishlari. Mandumah akademik bazasi, 2021.
4. Moussaoui, Adil. O'mon diplomatiyasi: Neytral siyosat va vositachilik jozibasi. // Arab Diplomatiya Jurnali
5. Cüneyt Yenigün, Houchang Hassan Yari & Abdullah Al Maani, "Public Diplomacy of Oman", Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, Vol. 12 No. 3. 2021.
6. Valeri M. Oman: Politics and Society in the Qaboos State. – London: Hurst Publishers, 2009. – 284 b.
7. Eakin H. In the Heart of Mysterious Oman // The New York Review of Books. – 2014.
8. Oman Observer. Meet-the-People Tours of Late HM Helped in Policy Making // Oman Observer. 2020.
9. Bohl R. Power and political imagery: Will Oman preserve Sultan Qaboos' portraits? // The New Arab. – 2020.